



QORAQALPOQ MILLIY QO'SHIQCHILIK SAN'ATINING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

Rametullaeva Gulparshin

Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogika instituti, Pedagogika
fakulteti Musiqa talimi yo'nalishi 4 -kurs talabasi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7179592>

ANNOTATSIYA: Ushbu maqolada Qoraqalpoq milliy ashulachilik san'atining o'ziga xos xususiyatlaridan xalq va keng jamoatchilik tomonidan yaratilgan folklor musiqalari va musiqiy chiqishlar, xalq qo'shiqlari haqida so'z yuritilgan bo'lib, ularning yaratilish tarixi haqida fikr yuritilgan.

KALIT SO'ZLAR: Folklor, mehnat qo'shiqlari, yakka ijro, kompozitsiya, lapar, yor-yor, yallalar, sog'im qo'shig'i.

Bilamizki, qadim va boy tarixga ega Qoraqalpoq xalqi o'zining asrlar osha milliy nijrochilik san'ati bilan atrofdagi boshqa millat vakillari folklor ijrochiligi va boshqalarda atroflicha ajralib turadi. O'lis o'tmish sahifalariga nazar tashlaydigan bo'lsak Qoraqalpoq xalqi vakillarining „Sahro bulbullari“ deb tan olinishining o'zi ham so'zimizning isbotidir. Bugungi kunda ham Qoraqalpoq milliy qo'shiqchilik san'atining asosiy negizlarini ikki toifaga bo'lish mumkin:

1. Yakka ijro etish orqali;
2. Yakka va guruh ijrosi orqali.

Shu o'rinda aytish joizki, yakka tarzda ijro etiladigan milliy folklor ashulalaridan biri „yor -yor “ bo'lib, bugungi zamonaviy Estrada ijrochiligidan ham munosib o'rin egallab, har qanday Qoraqalpoq xalqiga mansub vakillar ishtirok etayotgan to'yda „yor-yor“ ijro etilishi tabiiy bir holat sifatida qaralib kelinishi ham, bugungi kunga kelib ham Qoraqalpoq milliy ashulachilik san'atiga bo'lgan hurmat va e'tiborning yorqin na'munasidir deyish mumkin.

„O'tmishda xalqning ruhiy kechinmalari; shodlik, xursandchilik, qayg'u -hasrat, iztiroblar - xalq ijodining namunasi bo'lmish qo'shiqlarni dunyoga keltirdi, takomillashtirishdi. Qo'shiqchilikdagi bu turli ijro yo'nalishi namunalari quyidagilar:

- Maishiy ashulalar;
- Dostonlar;
- Lirik va ishqiy xarakterdagi ashulalar;
- Marosim qo'shiqlari;
- Mehnat qo'shiqlari;
- Laparlar, yallalar;
- Bolalar qo'shiqlari

deb nomlanib an'anaviy qo'shiq ijrochiligi yuzaga keldi” [1]





Umumiy milliy ashulalardan tarkib topgan kishilar hayoti va turmush tarziga bevosita aloqador bo'lgan milliy va an'anaviy ashulalar kishilik jamiyatining barcha og'riqli nuqtalari, yaxshi va yomon kunlarini namoyon etish bilan birgalikda ma'lum bir xalq va davrning boshqaruv shakli va boshqalardan kelib chiqib, turli mazmundagi yo'nalishli ashulalardan biriga aylanib ulgurdi, yuqorida sanab o'tilgan marosim maishiy, mehnat qo'shiqlari va boshqalar ham shular jumlasidandir.

Bunday ashulalar tarkibini hosil qiluvchi she'riy qismlar hgam oson, bo'g'inlar soni nisbatan oson va kam yod olishga qulay tarzda bo'lib bir marotaba eshitgan kishi yodlab qolish qobiliyatiga ega.

„Bet ochar. Bet ochar marosimi kelin tushurish to'yiga bog'liq paytda bo'lgan urf-odatlarining bir turi. Qoraqalpoq xalqida yangi tushgan kelinga shu atrofda yashovchi xalq bilan ya'ni tug'gan – tug'ishganlari bilan tanishtiruv maqsadida aytiladigan qo'shiq xisoblanadi. Bet ochar marosimi yangi tushgan kelin uchun o'git-nasihat va tabiiy ahamiyatga fazilatlarni o'zlashtirish darsi deb tushunsa bo'ladi. Sababi, qon-qarindosh va el -ulusning yangi tushgan kelin bilan tanishishidan tashqari yangi oilada qanday o'zini tutish kerak ekanligini, shu oilaning turish turmushida, oiladagi yoshi katta nuroniylarni hurmat qilish, Yoshi kichik bo'lganlarni esa izzat ko'rsatish, umr yo'doshiga vafodor bo'lish va boshqalar nazarda tutiladi“ [2]

Qoraqalpoq milliy qo'shiqchilik san'atining yorqin namunalaridan yana biri shundaki, qizlar va yigitlarning aytishuv qo'shiqlari bo'lib bunda chanqovuz, dutor, tanbur doira va boshqa musiqiy asboblarda ham mohirlikda musiqiy chiqishlar va turli kompozitaiyalarda namoyon bo'ladi, bu jihatdan Qoraqalpoq milliy qo'shiqchiligining o'ziga xos xususiyatlari Xorazm musiqa maktabining turli jihatlarini ham o'zida namoyon etishi bilan ajralib turishi ma'lum.

Urf odat jihjatidan yondashadigan bo'lsak, birgina misol tariqasida shuni aytish mumkinki, Qoraqalpoq milliy ashulachilik san'atining eng avzal jihatlaridan biri „kelinsalom“ning to'y kuni ijro etilishidir.

Bu jihatdan Respublikamizning boshqa viloyatlarida vaziyat biroz boshqacha bo'ib, ushbu marosim to'y kuni emas to'ydan keyingi kuni amalga oshiriladi. Yana bir jihatga e'tibor qaratadigan bo'lsak, Qoraqalpoq milliy qo'shiqchiligida „O'rim qo'shig'i“ yetakchi o'rinni egallab, qishloq aholisi uchun mashhur qo'shiq turlaridan biri sifatida qaraladi. Bunda „o'roq va o'roqchilar guruhi tomonidan o'rim paytida aytiladigan o'rim qo'shiqlariga dehqonning umidi ro'yobga chiqayotgani, ko'tarinki ruh bilan ishga kirishayotgani bayon etiladi, dehqon uchun kuch-g'ayrat jo'sh uradi.





O'rog'im olmos,
O'rishdan qolmas,
Sira ham tolmas,
O'rmasam bo'lmas"[3]

Yuqorida aytib o'tilganidek, milliy xalq qo'shiqlarining yaratilishida xalq va keng jamoatchilik ommasining ta'siri kattadir. Bundan tashqari xalq ichida quyidagi qo'shiqlar: Qo'shchi qo'shig'i, sog'im qo'shig'i, mavsum qo'shiqlari va boshqalar ham mavjud ekanligi kishini behad quvontiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Davron Qodirov „An'anaviy qo'shiqchilik" Toshkent „Iqtisod – moliya" 2007. „Musiqiy ta'lim" bakalavriat ta'lim yo'nalishi talabalari uchun o'quv qo'llanma.
2. Nodirova.A.B „Qoraqalpoq muzika tarixi" Toshkent 2018 „Sano -standart"
3. Adambaeva T. „Erte degi Qaraqalpaq muzikasi" Nokis „Qaraqalpaqstan" 1976

